

**Mashhur tojik shoiri Badriddin Hiloliyning "Layli va Majnun" dostoni
haqida ma'lumot**

Sodiqjon Ro'zmatov

CHDPU 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Hikmat Hikmatov

CHDPU adabiyotshinoslik kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA: *Badriddin Hiloliy 15-16 asrning mashhur tojik shoiri hisoblanadi. Hiloliy bilan bir zamonda yashagan o'zbek shoiri Boburmirzo uning xotirasi juda kuchli ekanligini aytib o'tgan. Hattoki shoirning yuqori iste'dodi Navoiyning diqqatini o'ziga tortgan. Haqiqattan Badriddin Hiloliyning hofizasi juda kuchli edi 30-40 ming baytni yoddan bilar edi va bir qancha adiblar xamsalarini yodda saqlagan edi. Aro'z, qofiya va she'rda hozirjavob edi.*

Kailid so'zlar: *hozirjavob, hofiza, diqqat, nasihat, hamd, darvesh, dasht.*

"Layli va Majnun" dostoni Hiloliyning uchinchi masnaviysi bo'lib, 1521-1522 yilda yozib qoldirilgan. Hiloliyning "Layli va Majnun" dostoni 3500 misradan ziyodroq bo'lib, 34 bobdan tashkil topgan. Shoir besh dostonini hamdu na'tga baxshida etgan. Oltinchi bobi farzandga nasihat bo'lib, axloqiy tarbiyani o'z ichiga olgan. Shoir o'zining aziz farzandiga nasihat qilib, odobli bo'lishini, o'z umrini behuda sarflamaslikni va ilmu hunar o'rganishni targ'ib etadi. Quyidagicha yozib qoldiradi:

Bishnav suxani maro, ki pand ast,
/Eshitgin so'zimni, nasihatdir,/
Pandi padar ast, sudmad ast,
/Ota nasihatidur , foydalidur./
Sarmoyai umr bas aziz ast,
/Umr sarmoyasidir bas azizdir,/
Daryob, ki in nafas aziz ast.

/Topgin, bu nafas azizdir./

Ilmat ba amal chu yor gardad,

/Agar ilming senga yor bo'lsa,/

Qadri tu yake hazor gardad./

/Sening qadring ming daraja bo'lar./

Bu dostonning mazmuni qadimgi Mashriqzamin xalqining afsonalaridan, Layli va Majnunning ishq uchun yaratilgan.

Miri arab o'zining kichik farzandi Qaysni maktabga beradi. U maktabda Layliga oshiq bo'ladi va Layli ham ham unga dil beradi. Bu ikkala yoshning muhabbatidan Laylining onasi xabardor bo'ladi va uni maktabga borishini taqiqlaydi. Qays Laylidan judo bo'lib, uning firoqidan g'amga to'ladi. Odamlar uni Majnun yani devona deb atashadi. Qaysning otasi bundan xabar topadi va unga nasihat qilib Laylining ishqidan voz kechishni aytadi. Ammo Majnun otasining nasihatiga quloq solmaydi. Bir kun Majnun darveshlar kiymida Laylining uyiga boradi. Layli uning ovozini eshitib, uning oldiga chiqadi. Majnun Laylini ko'rib behush bo'lib yerga yiqiladi. Layli mehribonlik bilan uning qulidan tutib turg'izadi. Majnun Laylining ostonasiga kirib keyin uyiga qaytadi bundan keyin Majnunning ishq dardi yana kuchayadi. Oxiri Majnun o'z yaqinlaridan uzoq bo'lib, dashtu biyobonlarga chiqib ketadi. Otasi bir donishmand keksa kishining nasihatiga ko'ra Majnunni topib uning uyiga Laylining suratini chizdiradi. Majnun Laylining suratiga termulib bir necha kun otasining uyida qoladi.

Ammo bundan keyin yana Laylini izlab Najd tog'iga chiqib ketadi. Layli mozorni ziyorat qilish bahonasida uydan chiqib ketib Majnun bilan uchrashadi va bir muddat u bilan bo'lib keyin uyiga qaytadi. Majnunning otasi bir necha qarimdoshlari bilan Majnunni izlashga tushadi va uni Najd tog'idan paydo qiladi va "Layli bizning uyimizga keldi" deb aldab uyiga olib kelib, oyoqlarini zanjir bilan bog'lab, tabibning yoniga oboradi. Tabib aytadiki Majnun dardiga yagona shifo Laylining visoliga yetishishdir. Majnunning otasi bir necha kishi bilan birga Laylining otasi huzuriga uni qulini surash uchun boradi. Lekin uning otasi rozilik bildirmaydi. Majnun umidsizlikdan yana dashtu biyobonga chiqib ketadi. Shu vaqt

ichida bir qabila sardori Ibni Salom degan davlatmand shaxs o'z o'g'liga Laylini qulini so'rab unga sovchi junatadi va Laylining otasi bunga rozilik bildiradi. Bu xabarni Layli eshitib otasiga qarshi borib, Majnundan boshqasini ixtiyor qilmaslikni aytadi. Bir Pirzol degan shaxs Majnunga yolg'on xabar yetkazib, aytadi: " Layli bir kishiga turmushga chiqishga rozi bo'libdi" , bundan keyin Majnun Layliga maktub junatib uni bevafoqlikda ayblaydi. Layli maktubga javoban ishq yulida sodiq qolishin izhor etadi. Bir kun Majnun Laylining uchratib, uni bag'riga olib, erkalay boshlaydi. Buni otasi ko'rib uni Ka'ba ziyoratiga olib bormoqchi bo'ladi. Ammo Majnun yana kuchli darajada devona bo'ladi, otasi bundan afsuslanib o'z qabilasiga qaytadi. Laylining qabilasi safarga chiqadi va yulda Laylining tuyasi korvondan uzoqlashib, uni Majnunnig oldiga oboradi. Ular bir kechani birga o'tkazadilar. Layli Majnunga birga qochib ketishni taklif qiladi ammo Majnun bunga rozi bo'lamydi. U Laylini sharmanda qilishni xohlamaydi. Ertalab Layli o'z qabilasiga qaytadi va va'da beradiki yana keladi. Majnun bir yil usha yerda Layliga muntazir bo'ladi, uning harakatsizligidan qushlar uning boshi ustiga in quradilar. Bir boshqa qabilaning shohi Navfal ov qilayotgan paytida, Majnunni behush topadi. Uning ishq ta'rixi haqida xabar topadi. U va'da beradiki Majnunni visolga yetkazadi va shu maqsadda Laylining otasiga maktub yullaydi. U talab qiladiki ikki oshiqning bir biriga yetishishiga rozi bo'lsa, ammo Laylining otasi buni rad etadi. Navfal Laylining qabilasiga qarshi jang e'lon qiladi. Bu jangda Navfal g'alaba qozonadi va Layli bilan birga bir nechta qarimdosklarini asirga olib Majnunning oldiga yuboradi. Majnun aytadiki agar Laylining qabilasi ularning nikohiga rozi bo'lishmasa, u Laylini zo'rlik bilan qabul qilmaydi. Navfal Layli va boshqa asirlarni ozod qiladi. Laylinig qabilasi Majnunnig bu ishidan xabar topib qaror qiladiki ularni birlashtirsin. Bu xabar Majnunning otasini shod qiladi va ikki qabila qushilib tuy barpo qilishadi ammo shu ayyomda Layli va Majnun bir biriga qarab, faryod chekishadiyu ikkalasi ham ko'zlarida quvonch bilan vafot etishadi. Tuy azoga aylanib ketib Layli va Majnunni bir qabrga quyishadi.

REFERENCES

1. Абдуллоев А. Захири Фарёбӣ. Душанбе, 1974; Адабиёти форси тоҷик дар нимаи аввали асри 11. Душанбе, 1979.
2. Акбаров Юсуф, Талаби ҳаёт ва қисмати адабиёт. Душанбе, 1977.
3. Амонов Раҷаб, Таърихи адабиёти тоҷие, Душанбе, 1982.